



“TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY
JURNALI**

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 10 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. eshbolta_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. navruza_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. nurillo_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. muxiddin_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,
Termiz, O'zbekiston. oltiboy_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. maqsuda_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv_urolova@tues.uz

MUNDARIJA

G. E. TURAYEVA

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

G.T. JUMAYEVA

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

O.Ch.XOLOV

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

N.M. SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

M.Y.MADIEVA

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

S.Q. ESHBOYEVA

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

N.N. SHODIYEVA

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

K.Sh.OLTIBOYEVA

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

U.A. TASHBAYEVA

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

M.Y.MADIEVA

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

R.D. NORQOBILOVA

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

G'.A. MAMARAJABOV

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

F.A. ABDURAZZOQOV

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

A.Ch. QOSIMOV

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

M.X. FAYZULLAYEVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

S.A. JABBOROVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

F. YORMATOV

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari70

R. R. KHAMRAEVA

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

I.H. JUMAYEV

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

N.A. UMAROVA

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

I.B. QARSHIYEVA

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Shodiyeva Nodira Normamatovna

ERTA NIKOH QURISHNING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot davomida ma'lumotlarni yig'ish usullari kuzatuv, chuqurlashtirilgan suhbat va hujjatlarni o'rganishdan iborat bo'ldi. Tadqiqotda erta nikohning ta'siri faqatgina psixologik, hissiy, aqliy tayyorgarlik va iqtisodiy jihatlardan emas, balki aslida oila qurishdan oldin yaxshi oilaviy barqarorlik poydevorini yaratish uchun ko'p narsalarni tayyorlash kerak.

Kalit so'zlar: Erta nikoh, yosh oila, oilaviy barqarorlik, ma'lumotlarni yig'ish usullari kuzatuv, chuqurlashtirilgan suhbat, mustahkam oila.

АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является оценка влияния ранних браков среди молодежи на прочность семьи. В ходе исследования методы сбора данных включали наблюдение, углубленное интервью и изучение документов. В исследовании рассматривается влияние раннего брака не только с точки зрения психологической, эмоциональной, интеллектуальной подготовки и экономических аспектов, но и подчеркивается, что на самом деле необходимо подготовить множество факторов для создания прочного фундамента семейной стабильности еще до вступления в брак.

Ключевые слова: Ранний брак, молодая семья, семейная стабильность, методы сбора данных, наблюдение, углубленное интервью, крепкая семья.

ABSTRACT

This article aims to assess the impact of early marriage among young people on family stability. During the study, data collection methods included observation, in-depth interviews, and document analysis. The research reveals that the impact of early marriage is not limited to psychological, emotional, mental preparedness, and economic aspects. In fact, numerous factors need to be addressed to establish a solid foundation for family stability before forming a family.

Keywords: Early marriage, young family, family stability, data collection methods, observation, in-depth interview, strong family.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu - sog'lom, mustahkam va barqaror oilalarning mavjudligidir. Oila nafaqat kichik ijtimoiy institut, balki shaxs kamoloti, ma'naviyat va tarbiyaning tayanch maskani sifatida jamiyat hayotida alohida o'rin tutadi. Biroq so'nggi yillarda ijtimoiy muammolardan biri sifatida erta nikohlar masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Ba'zi hollarda bu holat milliy an'analar, urf-odatlar yoki iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lsa, ba'zan esa ijtimoiy bosim yoki noto'g'ri qarorlar natijasida yuzaga chiqmoqda.

Erta nikoh qurish - bu o'smirlik yoki voyaga yetmagan davrda, ya'ni jismoniy va psixologik jihatdan to'liq shakllanmagan yoshda oila qurish holati bo'lib, ko'plab hollarda bu nikohlarning barqarorligi past, nizolar va ajrimlar soni yuqori bo'ladi. Natijada, nafaqat oilaning, balki jamiyatning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nikoh - bu inson hayoti shakllarini ro'yobga chiqarishdan kelib chiqadigan oilaviy hayotni shakllantirishning dastlabki jarayonidir. Nikohning maqsadi insonlar hayotini bir-birlari bilan yaxshi munosabatda tashkil etishdir. Nikohning ahamiyati shunchalik muhimki, davlat nikoh to'g'risidagi qonunni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Erta nikoh muammosi nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar erta nikohning oila mustahkamligiga salbiy ta'siri mavjudligini ilmiy jihatdan isbotlab bermoqda.

O'zbekiston misolida olib qaralganda, mahalliy olimlar ham erta nikohning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy oqibatlariga e'tibor qaratgan. Jumladan, J. Rustamov o'zining "Causes of Early Marriages

and Early Births and Their Consequences” nomli maqolasida erta turmushning asosiy sabablarini oilaviy bosim, an’anaviy qarashlar va qiz bolalarga nisbatan noto’g’ri ijtimoiy tasavvurlar bilan bog’laydi. Unga ko’ra, bu kabi nikohlar ko’pincha moliyaviy mustaqillikning yo’qligi, ayollar salohiyatining to’laqonli rivojlanmasligi va nikohda barqarorlikning pastligi bilan yakunlanadi.

Shuningdek, M.M. Baltabayeva o’z tadqiqotida O’zbekistonning Farg’ona vodiysi misolida erta nikoh va erta tug’ruq holatlari ustida sotsiologik tahlil olib borib, bu hodisaning kelib chiqishiga mahalliy ijtimoiy-madaniy omillar, ya’ni ota-onalarning qarashlari, ta’lim darajasi va gender stereotiplari asosiy sababchi ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yoshlar o’rtasida ijtimoiy ongning pastligi va huquqiy savodsizlik erta nikohlarning oldini olishni qiyinlashtiradi.

O’zbekiston Respublikasi rasmiy statistikalarga ko’ra, so’nggi yillarda bolalar nikohi darajasi sezilarli darajada kamaygan bo’lsa-da, ayrim hududlarda erta turmush holatlari hanuz kuzatilmoqda. Bu esa, mavjud huquqiy asoslar bilan birga, ijtimoiy-ma’naviy ongni oshirish, yoshlar orasida sog’lom nikoh madaniyatini shakllantirish zarurligini ko’rsatadi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Susheela Singh va Renee Samara tomonidan o’tkazilgan keng qamrovli izlanishlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning voyaga yetmasdan turmush qurishi ko’plab salbiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi, ayniqsa, oila ichidagi barqarorlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi qayd etiladi. Ularning tadqiqotlariga ko’ra, bunday nikohlar aksariyat hollarda ayollarning ta’lim olish huquqining buzilishiga, erta homiladorlik xavfining ortishiga va psixologik zo’riqish holatlariga olib keladi. Bu esa o’z navbatida, oila a’zolari o’rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi, iqtisodiy beqarorlik va ajrimlar sonining ortishiga sabab bo’ladi.

Shu o’rinda aytish kerakki, Indoneziya tadqiqotchilari - Bayu Kharisma, Adhitya Wardhana va Mohammad Zidan Fauzy tomonidan olib borilgan “Early Marriage and Human Development Index” nomli tadqiqotda erta nikoh darajasi yuqori bo’lgan hududlarda inson taraqqiyot ko’rsatkichlari past bo’lishi aniqlandi. Tadqiqotda yosh juftliklar orasida psixologik moslashuv yetishmasligi, iqtisodiy qaramlik va tarbiyaviy mas’uliyatning tushunilmasligi oila barqarorligiga bevosita tahdid sifatida baholangan.

Xorijiy va o’zbek olimlarining tadqiqotlari erta

nikohning oila mustahkamligiga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatishini turli yondashuvlar asosida isbotlab bermoqda. Barcha holatlarda asosiy e’tibor yoshlarning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan nikohga tayyorlik darajasiga qaratilishi zarur bo’lib, bu masala jamiyatda chuqur profilaktik yondashuvni talab qiladi.

Hozirgi kunda erta nikohlarning oila mustahkamligiga ta’sirini aniqlash, uning ijtimoiy, psixologik va huquqiy jihatlarini chuqur o’rganilmoqda. Mazkur masalani tahlil qilishda kompleks yondashuv asosida quyidagi ilmiy tadqiqot usullari muhim ahamiyat kasb etmoqda:

Tahliliy-deskriptiv usul. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilgari o’tkazilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinib, erta nikohning oila mustahkamligiga qanday ta’sir ko’rsatishi aniqlash. Bu usul orqali masalaning dolzarbligi va nazariy asoslari ochilmoqda.

Sotsiologik so’rovnoma usuli. Tadqiqot doirasida turli yoshdagi fuqarolar (erta turmush qurgan ayollar, ularning oila a’zolari va mutaxassislar) o’rtasida anketalar va og’zaki so’rovlar o’tkazish joiz. So’rovnoma natijalari erta nikohning amaliy hayotdagi salbiy oqibatlarini aniqlashda muhim rol o’ynadi.

Taqqoslama-tahlil usuli. Voyaga yetmay turib nikohga kirganlar bilan voyaga yetgach, ongli ravishda oila qurgan shaxslar hayoti solishtirilib, oilaviy barqarorlik darajasidagi farqlash zarur. Bu metod erta nikohning uzoq muddatli oqibatlarini baholash imkonini berdi.

Empirik kuzatuv. Muayyan ijtimoiy guruhlar (ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi oilalar) hayotiga bevosita kuzatuv olib borilib, erta nikohlar natijasida yuzaga kelgan muammolar (nizolar, ajrimlar, iqtisodiy qiyinchiliklar) real holatda tahlil qilish.

Huquqiy-analitik yondashuv. Erta nikohlar bilan bog’liq mavjud qonunchilik hujjatlari (O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, Voyaga yetmaganlar huquqlari to’g’risidagi qonun va xalqaro normalar) tahlil qilinib, ular asosida qonuniy cheklolarning mavjudligi va ularning amaldagi ta’sirini baholash mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining asosiy tayanclaridan biri bu – mustahkam va sog’lom oilalardir. Oila shaxs kamoloti, ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishi va avlodlar uzviyligining ta’minotchisi sifatida muhim o’rin tutadi. Biroq so’nggi yillarda, ayniqsa ayrim hududlarda erta nikoh masalasi jamiyat e’tiborida turibdi. Yoshlar hayotida jismoniy,



ruhiy va ijtimoiy tayyorgarlik darajasi yetarlicha shakllanmasdan turmush qurishi ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Aksariyat hollarda bu holat ota-onalar yoki jamiyat bosimi, an'anaviy qarashlar va ma'naviy tayyorgarlikning yo'qligi bilan bog'liq bo'ladi. Shunday nikohlar natijasida oila barqarorligi zaiflashib, ajrimlar, psixologik to'qnashuvlar va ijtimoiy beqarorlik holatlari yuzaga chiqmoqda.

Ushbu muammoni chuqur o'rganish maqsadida turli olimlar, xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, xalqaro miqyosda S. Singh va R. Samara tomonidan rivojlanayotgan davlatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda erta nikohning ayollar salomatligiga, ta'lim olishi va jamiyatdagi faol ishtirokiga jiddiy salbiy ta'siri qayd etilgan. Indoneziyalik olimlar B. Kharisma, A. Wardhana va M.Z. Fauzy o'z tadqiqotlarida erta nikoh inson taraqqiyot ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ularning fikricha, yosh oilalarda iqtisodiy mustaqillikning yo'qligi, psixologik muvofiqlik darajasining pastligi va ota-onalik mas'uliyatiga tayyorgarlik yetishmasligi oilaviy barqarorlikni izdan chiqaradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu masalaga e'tibor qaratib, milliy kontekstda erta nikohning ijtimoiy va ma'naviy oqibatlarini yoritib berishgan. Xususan, J. Rustamov erta nikoh va erta tug'ruqlarning salbiy oqibatlarini statistik ma'lumotlar va huquqiy asoslar bilan yoritgan. M.M. Baltabayeva esa Farg'ona vodiysi misolida olib borgan izlanishlarida erta nikohlarning ko'payishiga ota-onalarning past savodxonligi, an'anaviy bosim va ijtimoiy stereotiplar sabab bo'layotganini ta'kidlaydi. Mahalliy qonunchilikda nikoh yoshi belgilangan bo'lsa-da, ayrim holatlarda bu me'yorlarning buzilishi va norasmiy nikohlar jamiyat barqarorligiga xavf tug'dirmoqda.

Tadqiqotda erta nikohlarning oila mustahkamligiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash uchun kompleks ilmiy uslublar qo'llanildi. Avvalo, tahliliy-deskriptiv uslub orqali mavjud adabiyotlar va qonunchilik bazasi tahlil qilindi. So'rovnoma va kuzatuv asosida yosh oilalar hayotiga oid amaliy holatlar yig'ildi, turli yoshdagi fuqarolar, ayniqsa erta turmush qurgan ayollar bilan suhbatlar olib borildi. Taqqoslamatahlil usuli yordamida voyaga yetmasdan oila qurganlar bilan voyaga yetib, ongli nikoh tuzganlarning oilaviy barqarorligi solishtirildi. Shuningdek, huquqiy-analitik yondashuv orqali erta nikohlar bilan bog'liq qonunchilik mexanizmlari, ularning amaliyotdagi samarasiga

baho berildi.

Mazkur izlanishlar natijasida erta nikohlarning oila barqarorligiga salbiy ta'siri isbotlanishi, ayniqsa, yosh oilalarda ajrimlar, nizolar va iqtisodiy beqarorlik holatlari yuqori ekanligi aniqlanishi kutilmoqda. Tadqiqot davomida erta nikohlarning asosiy sabablarini - ta'lim yetishmasligi, huquqiy savodsizlik, gender tengsizligi va ijtimoiy bosim kabi omillar tashkil etishi ko'rsatiladi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish orqali erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan samarali tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ular orasida yoshlar uchun huquqiy-ma'naviy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, ota-onalar bilan ishlash, ta'lim muassasalarining mas'uliyatini oshirish kabi choralar alohida o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, erta nikoh masalasi zamonaviy jamiyatda, xususan, ijtimoiy-ma'naviy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlarda dolzarb ijtimoiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda. O'tkazilgan ilmiy tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmasdan turmush qurish holatlari ko'plab hollarda oila barqarorligining zaiflashuviga olib keladi. Yosh oilalarda psixologik va ijtimoiy yetuklikning yetishmasligi, iqtisodiy qaramlik, o'zaro mas'uliyatni anglamaslik, shuningdek, ta'lim va kasbiy faoliyatdan erta chekinish natijasida oilaviy nizolar, ajrimlar va salbiy ijtimoiy oqibatlar yuzaga chiqmoqda.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar erta nikohning salbiy oqibatlarini ko'p qirrali yondashuvlar asosida isbotlab bergan. O'zbekiston misolida esa bu muammo ko'pincha an'anaviy urf-odatlar, ijtimoiy bosim, huquqiy savodsizlik va ta'lim darajasining pastligi bilan bog'liq. Erta nikohlar nafaqat shaxsiy hayot sifatini pasaytiradi, balki jamiyatning sog'lom demografik rivojlanishiga ham xavf tug'diradi.

Ushbu tadqiqotda aniqlangan holatlar asosida, yoshlarning nikohga tayyorgarlik darajasini oshirish, huquqiy va ma'naviy targ'ibotni kuchaytirish, ota-onalarning mas'uliyatini oshirish va ta'lim muassasalarini bu borada faol ishtirokchi sifatida jalb etish lozimligi ta'kidlanadi. Faqat ijtimoiy ongni oshirish, huquqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish va nikoh masalasiga mas'uliyatli yondashuv orqali sog'lom va barqaror oilaviy munosabatlarni shakllantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustamov, J. Erta nikohlar va erta tugʻruqlarning sabablari hamda ularning oqibatlari. (Elektron ilmiy risola) Toshkent - 2023 yil.
2. Baltabayeva, M. M. Oʻzbek oilalarida (Fargʻona vodiysi misolida) erta nikoh va erta tugʻruqning oldini olishdagi ijtimoiy omillar. (Pedagogik akmeologiya ilmiy jurnal) Fargʻona - 2022 yil. 131-b.
3. Jalilov J.J., Tojiev Z.G'. Talabalar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. Toshkent-2021 yil. konf. 147-148 b.
4. Sobirova S A "Oila qurishda nikoh oldi omillari va motivlarining etnopsixologik xususiyatlari" Ijodkor oʻqituvchi jurnali 5 oktyabr 2023 yil // 32 – son.
5. Karimova V.M. Oila maʼrifati (yoshlarga oila ilmi haqida birinchi risola). Ilmiy-ommabop nashr. – T., 2009. – 44-b.
6. Musurmanova O "Zamonaviy oilani barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning oʻrni" "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari toʻplami. 30-sentabr, 2021-yil. 36-39-bet.